

2023-YANVAR



TIBBIYOT AKADEMIYASI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

TIBBIYOT AKADEMIYASI



+998 97 277 78 01



WWW.REANDPUB.UZ



INFO@REANDPUB.UZ

R.A.P





# **TIBBIYOT AKADEMIYASI**

## **ILMIY-USLUBIY JURNALI**

**BARCHA SOHALAR BO'YICHA**

**1-SON, 1-JILD YANVAR 2022 1-QISM**



## EDITOR IN CHIEF

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

## PREPARING FOR PUBLISHING

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

## BOSH MUHARRIR

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

## NASHRGA TAYYORLOVCHI

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

# MAGISTRALAR

## ILMIY-USLUBIY JURNALI

## TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

**Azimov Jumanazar Turg'unovich**

O'zbekiston Respublikasi Qurollu kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

**Dr. Israfil Mamarakhim**

Doctor of Philosophy (Ph.D) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

**Maksudova Firuza Xurshidovna**

Toshkent farmatsevtika institutining «Dori vositalarining sanoat texnologiyasi» kafedrasi mudiri

**Kojikbaeva Ziyada Adilbaevna**

Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistikha kafedrasi dotsenti

**Allaberganova Gulchehra Masharipovna**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Umumiy fizika" kafedrasi dotsenti

**Shamshiyeva Hulkar**

Toshkent shahri Olmazor tumani Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika o'qituvchisi

**Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich**

Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

**Ustaboyev Abdullo Raximjonovich**

Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchisi

**Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna**

Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

**Mirzabdullaeva Gulnora Muxammadjon qizi**

Namangan muhandislik-qurilish instituti menejment kafedrasi assistanti

**Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich**

Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

**Shukhrat Batirovich Djabbarov**

Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

**Shokirova Havasxon Nurmamatovna**

Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

**Baratova Maxbuba Mubinjanovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**Dauletmuratova Zamira Usnattdinovna**

Qoraqalpoq davlat universitetining Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasining assistant-o'qito'vchisi

**Shokirova Havasxon Nurmamatovna**

Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

**Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich**

Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

**Qodirov Ziyoidin Mamadalievich**

Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

**Alimjon Tojiev Mo'ydinovich**

Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

**Tojiboeva Gulxumor Raxmonjononova**

Andijon davlat universiteti umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

**Yunusova Gulshod Nazixovna**

Namangan davlat universitetining «Amaliy matematika va axborotlар texnologiyalari» kafedrasi katta o'qituvchisi

**Ergashev Bobirjon Boxodirovich**

Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar talimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekanii

**Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich**

PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

**Nabieva Saidaxon Abduvaxabovna**

Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat iqtisodieti va menejmenti kafedrasi dotsenti (PhD)

**ZAKIROVA RUXSONA YUNUSOVNA**

Toshkent farmatsevtika institutining Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrasi v/b dotsenti

**Raxmatullaeva Gulnora Kutbdinovna**

TTa nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi dotsenti

**Achilova Sanobar Sabirovna**

Urganch davlat universiteti kimyoiy texnologiyalar fakulteti Ozik ovkat kafedrasi dotsenti

**Turakulov Ibroxim Ravshanovich**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq-tabiyi va jismoniy madaniyat fakulteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi v.v.b.dotsenti

**Usmonaliyeva Risolat Umaraliyevna**

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

**Sobirov Abdulkay Shukirovich**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha prorektori

**Jo'rayev Hamza Hamraqulovich**

Uzbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasi dotsenti

**Erkaboy Yu. Derdibaev**

Toshkent davlat agrar universiteti, Dexkonchilik va melioratsiya kafedrasi professori

**Saidova Markhabo Xabibullo kizi**

DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMICAL SCIENCES

## FARMAKOLOGIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI VA AHAMIYATI.

**Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi  
Boltaboyevna Farida Qurbanova**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada farmakologiya faning paydo bo'lishi rivojlanish tarixi tahlil qilingan. Bundan tashqari maqolada farmakologiya fanining boshqa tibbiyot fanlari bilan aloqasi va uning tibbiyot fanlari tizimida tutgan o'rni atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** famakologiya, dori, tibbiyot, tabobat.

Farmakologiya tibbiyotning asosiy fanlaridan biri, kasalliklarga qarshi kurashishda shifokorlar qo'lidagi eng asosiy quroq xisoblanadi. Farmakologiya lotincha so'z bo'lib, parmacon - dori, logos-fan, dorishunoslik fani degan ma'noni bildiradi. Farmakologiya odam va xayvonlar organizmiga dorilar yuborilgandan keyin unda ro'y beradigan o'zgarishlarni o'rganadi. Farmakologik moddalar organizmning turli a'zolari, to'qimalari, xatto xujayralarini faoliyatini o'zgartirishi mumkin. Farmakologiya bir nechta katta bo'limlardan: umumiy farmakologiya, klinik farmakologiya, biokimyoviy farmakologiya, ximioterapiya, toksikologiya va boshqalardan iborat. Farmakologiya farmastiya fanlari - farmastevtik kimyo, farmakognoziya, farmastevtik texnologiya bilan chambarchas bog'liq, ular orqali kimyo, botanika, texnologiya fanlari bilan bog'lanadi. Tibbiyot olamida farmakologiya alohida o'ringa ega: bir tomonda tibbiyotning asosiy nazariy fanlari - fiziologiya, patologik fiziologiya, biokimyo bo'lsa, ikkinchi tomonda amaliy fanlar - terapiya, pediatriya, xirurgiya va boshqalar turadi. Farmakologiya orqali nazariy bilimlar amaliy tibbiyotdan o'rinn oladi. Farmakologiya tarixiga odamzod yaratilgan davrdayoq asos solingan, chunki o'sha davrda xam odamlar kasal bo'lganlar, yirtqich xayvonlarga, yong'lnarga duch kelganlar, ilonlar, chayonlar chaqqan, ular atrofdagi giyoxlardan, hayvonot olamidan shifo, dori-darmon izlaganlar. Eramizdan 3600 yil ilgari papirusga yozilgan kitob "Xar xil a'zolarga qo'llanadigan dorilar to'grisida" deb nomlangan. Farmakologiya fanining rivojlanishida qadimiy Osiyo mamlakatlarining xissasi katta bo'lgan. Xindiston, Tibet, Xitoy va Arab davlatlarida o'simliklar bilan davolash keng tus olgan. Xitoy tibbiyotining asoschisi Shen-Nung bundan 3 ming yil ilgari o'z asarlarida o'simliklarning sinonim nomlari, botanik ta'rifi, o'simliklardan maxsulotlar

tayyorlash davrlari va usullari, dori-darmonlarning ta'sir doirasi, qo'llanilishini keltirgan.“Ayur-Veda” dorivor o’simliklar haqida shifokor Sushruta tomonidan yozilgan qadimiylardan kitobida 700 xil dorivor o’simlik tasvirlangan. Mashxur “Jud-Shi” (“Shifobaxsh dori-darmonlarning moxiyati”) kitobi Tibet tibbiyotining asosini tashkil qiladi.Eramizdan 1500 yil ilgariyoq anor po’stining gijjalarga qarshi, kanakunjut moyining surgi, dengiz piyozining yurakka foydali ekanini bilishgan. Bu maxsulotlar xozirgi kunda xam ushbu kasalliklarda qo’llanadi.Qadimgi yunon shifokorlari Buqrot (eramizdan oldingi 460- 377 yillar), Dioskorid (1 asr), ayniqsa Rum xakimi Jolinus (Galen, 2 asr) dori-darmonlar ustida katta ishlar olib borishgan. Jolinus birinchi bo’lib xar xil dori shakllarini yaratgan, dori moddalarga retsept yozishni qo’llagan. Farmakologiyani rivojlantirishda o’zbek allomalari katta xissa qo’shganlar. Sharqning buyuk tabibi Ibn Abbos (997 yilda vafot etgan) o’z asarlarida yillar sayin yangi dori moddalari paydo bo’lishi, ularni avval xayvonlarda sinab ko’rish zarurligini ta’kidlagan. Sharqning qomusiy olimi, tabibi, mutafakkiri Abu Bakr Muxammad ibn Zakariyo ar-Roziyning (865-925 y) tabobatga doir 36 asari bizgacha etib kelgan: o’z asarlarida terapiya, xirurgiya, farmakognoziya, farmakologiya, psixologiya ilmlarini yangi goya va ixtiolar bilan boyitgan. Ushbu olimning tibbiyotga va kimyoga bagishlangan asarlari o’rta asrlarda Sharq va Garbda shu soxalarning rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatgan. Farmakologiya fani rivojida O’rta Osiyoning buyuk xakimi Abu Ali Ibn Sino xissasi juda katta bo’lgan “Tib qonunlari”, “Kitob ush shifo”, “Kitobi al kalbiya” kabi asarlarida o’sha davr tibbiyotida qo’llanilgan dori moddalari keltirilgan. “Tib qonunlari” ning birinchi kitobida 811 xil oddiy dori moddalari keltirilgan, ulardan 612 tasi o’simliklarga mansub. Beshinchi kitobda murakkab dori moddalarni tayyorlash va ularni qo’llash usullari bayon etilgan. Ibn Sino dorilarni bemorlarni mijoziga qarab ishlatish zarurligini uqtirgan, dori moddalarini mijoz bo'yicha isituvchi, sovituvchi, qurituvchi, namlovchi turlarga bo’lgan: Ibn Sino dori moddalariga bag’ishlangan she’riy “Urjuza fi-t-tibb” yozgan. Ibn Sino Ovrupo shifokorlaridan 400 yil oldin zaxm kasalligini simob bilan davolagan. Farmakologiyaning rivojlanishida buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniyning xam xissasi katta, “Saydana” asarida XI asrda ma'lum bo’lgan dori moddalari, to’rt yarim mingdan ortiq o’simliklar, xayvonlar, minerallar va ulardan olinadigan oziqlarning nomlari va izohlari keltirilgan. Beruniy insonning ichiga tushadigan

har bir narsa yo oziq-ovqat yoki zaxar bo'ladi, dorilar ana shularning o'rtasida turadi, degan. Dastavval oddiy dorilar tavsiya qilinishi zarur, agar ular foyda etkazmasa, shundan so'ng murakkab dorilarni qo'llash mumkin, deb ta'kidlagan. Beruniyning "Saydana" kitobi sharq dorishunosligining buyuk qomusi sifatida qo'llanib kelingan. Sharafutdin Abu Abdullox Muxammad Yusuf Ilokiy (1068 yilda vafot etgan) Ibn Sinoning shogirdlaridan bo'lib, o'zining "Muolajati Ilokiy", "Muxtasari Ilokiy" asarlarida turli kasalliklarning kelib chiqishi, ularni aniqlash, belgilari va dori moddalar bilan davolash usullarini bayon etgan. Bu asarlar o'z davrida tabiblar uchun qo'llanma bo'lgan. Xorazmlik olim va tabib Ismoil Jurjoniy (1080 - 1141) tibbiyot soxasida 15 dan ortiq asar yozgan. Farmakologiyaga oid kitobi ikki bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda oddiy moddalar, ikkinchi bo'limda murakkab moddalar va ularni tayyorlash usullari tog'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu olim forsiy tilda farmakologik atamalarni yaratgan. Umar Chagminiy (1221 yili vafot etgan) tib ilmiga mansub "Qonuncha" asarini yaratgan. Ushbu asarda faqat olimning vatani Xorazmda emas, Buxoro, Samarcand, Toshkent, Qo'qon madrasalarida, shuningdek Xindiston, Eron kabi mamlakatlarda XX asrning boshlarigacha qo'llanma sifatida foydalananib kelingan. Najibuddin Samarcandiy Abu Xomid Muxammad ibn Ali ibn Umar (1222 yilda vafot etgan) samarcandlik tabib va olimni tabobatga oid 8 ta ilmiy asari ma'lum, ulardan biri "Murakkab dorilarni tayyorlash" usullaridir. Yusufiy Muxammad ibn Yusuf al-Xiraviy (XV asr) Xindistonda Shox Zaxiriddin Bobur, keyinchalik uning o'g'li Xumoyunning saroy tabibi bo'lgan, "Tibbi Yusufiy" kitobi, bemorlarni dori moddalar bilan davolashni o'rganishda muxim qo'llanma bo'lgan. XVI asrda G'arb olimi Parastels farmakologiyani kimyoviy moddalar bilan to'ldirib yuborgan, tibbiyotda yatrokimyo (yatros - vrach) yunalishining asoschisi bo'lgan. Shu bilan birga Parastels fikricha, tabiatda xamma kasalliklarning davosi bor ularni tashqi ko'rinishidan aniqlash mumkin. Bemorga kasallangan a'zo shakliga o'xshagan meva, o'simliklar tavsiya qilingan. Masalan, yurak kasalliklarida mevalari yurak shakliga o'xshagan anakardius o'simligi, buyrak kasalliklarida esa barglari buyrakka o'xshagan o'simliklar bemorga shifobaxsh ta'sir etgan. XVIII asr oxirlarida Ganeman dorishunoslikda gomeopatiya yo'nalishiga asos solgan. Bunda davolash monandlik, o'xshashlik qonuniga asoslangan. Ganeman. Gomeopatik dorixonalar hozirgi kunda xam keng tarqalgan. XIX asrga qadar

farmakologiya empirik tarzda rivojlandi, xalq tabobatida xamda shifokorlar dori moddalarning ta'sirini bemorlarda kuzatib borganlar. XIX asrda eksperimental farmakologiya rivojlana boshladi. Barcha qo'llaniladigan, qo'llanmoqchi bo'lgan dori moddalari avval xayvonlarda tekshirib ko'riliши zarur degan xulosaga kelindi, shu vaqtan boshlab ilmiy farmakologiyaga asos solindi. Ilmiy farmakologiyaning rivojlanishida Rossiyada A.P.Nelyubin, O.V.Zabelin, E.V.Pelikan, Ovrupoda Fransua Majandi, Klod Bernar, Shmideberg kabi olimlar katta xissa qo'shdilar. I.P.Pavlov mashxur fiziolog bo'lishiga qadar farmakologiya soxasida katta tajribalar o'tkazgan, bu soxaga oid 80 ta ilmiy ish chop etilgan. I.P.Pavlov 1891 yildan 1895 yilga qadar Sankt-Peterburgdagi xarbiy tibbiy akademiyada farmakologiya kafedrasiga raxbarlik qilgan edi. Ushbu kafedrani I.P.Pavlovdan keyin xozirgi davr farmakologiyasining asoschisi akademik N.P.Kravkov 25 yil boshqardi. N.P.Kravkov farmakologiya soxasida katta maktab yaratgan, uning "Farmakologiya asoslari" kitobi 14 marta nashr etilgan. N.P.Kravkov juda ko'p shogirdlar tayyorlagan. Akademiklar S.V.Anichkov, V.V.Zakusov kabi shogirdlarining ishlari bugungi kun farmakologiyasining poydevori xisoblanadi. Xozirgi kunda farmakologiyaning rivojlanishida akademiklardan M.D.Mashkovskiy va D.A.Xarkevich katta xissa qo'shib kelmoqdalar, ayniqsa M.D.Mashkovskiyning "Dori moddalari, D.A.Xarkevichning talabalar uchun yozgan "Farmakologiya" dasturi shu fanni o'zlashtirishda katta ahamiyatga egadir. O'zbekistonda farmakologiyaning rivojlanishi Toshkent tibbiyot institutining farmakologiya kafedrasi ilmiy ishlaridan boshlangan. Farmakologiya fani ayniqsa 1956 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining o'simliklar kimyosi institutida farmakologiya laboratoriysi ochilgandan keyin taraqqiy etdi. Ushbu laboratoriyanı mashxur o'zbek farmakologi professor Isxok Komilov boshqardilar. Domla qirqtaga yaqin fan doktorlari, fan nomzodlarini tayyorladilar. Xozirgi kunda O'zbekistonimizda farmakologiya soxasida 20 dan ortiq fan doktorlari, 100 ga yaqin fan nomzodlari etishib chiqdi. Olimlarning izlanishlari natijasida bir necha yangi moddalar tibbiyotda qo'llanilmoqda. Tibbiyot oliy bilimgoxlaridagi farmakologiya kafedralari, qator ilmiy-tekshirish laboratoriylarining xodimlari, olimlar, kimyo-farmatsevtika sanoati xodimlarining saxovatli mexnati tufayli O'zbekistonda farmakologiya fani kundan-kunga

rivojlana bormoqda. Farmakologiyaning asosiy maqsadlaridan biri yangi dori moddalarini kashf qilish, ularning ta'sirini o'rganib, amaliy tibbiyotga tatbiq etishdan iboratdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ad. [Maxsumov](#) M. N., Malikov M. M., Farmakologiya, T., 1997; Azizova S . S Farmakologiya, T., 2002 y.
2. S. S. Azizova. Farmakologiya. Darslik. Toshkent Yangl asr avlodи 2006 y
3. M.Maxsumov, M. Malikov Farmakologiya. Darslik. Toshkent «O'zbekiston» 2006 y
4. H.A.Musayev . Farmakologiya asoslari.Darslik. Toshkent. 2016 y

**FAVQULOTDA HOLATLARDA SHIKASTLANISH VA UNING TURLARI,  
ULARNI OLDINI OLİSH BO'YICHA TAVSIYALAR.**

**Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi  
Dusova Ranobibi Djumaniyazovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada favqulotda holatlarda shikastlanish holatlari, uning turlari, ularni oldini olish va tez tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq holatlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** favqulotda holat, shikastlanish, talofat, tibbiyat, yordam.

Barcha tibbiyat xodimlari turli xil shikastlar, to'satdan yuz beradigan kasalliklarning asosiy belgilarini puxta bilishlari, bu shikastlar va holatlar paydo bo'lganda odamlarning zarar ko'rishi yoki kasallanishi qanchalik xatarli ekanligini tasavvur qilishlari lozim. Insoniyat va jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi ilm-fan va texnikaning jadal taraqqiy qilishi hamda ulkan yutuqlari bilan xarakterlanadi. Kishilarning mehnat qilish va dam olish sharoitlarini yaxshilash ularning umrini uzaytiradi. Biroq texnika taraqqiyoti odamga zararli taassurotlar xavfini oshiradi. Ko'rileyotgan profilaktik chora-tadbirlarga qaramay, transport vositalarining ko'payishi bilan ulardan shikastlanish hollari ortib bormoqda. Har yili minglab kishilar transportdan shikastlanib halok bo'ladi, ko'plari esa mayib-majruh bo'lib qoladi. Shikastlanganlarning hayotini qutqarib qolishga qaratilgan choralar orasida birinchi tibbiy yordamning ahamiyati katta, u nechog'li tez ko'rsatilsa, samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida inson hayoti va sihat-salomatligi eng katta boylik hisoblanadi. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va sog'liqni saqlash bo'yicha qabul qilingan Qonunlarda belgilab berilgan. Tibbiy yordamning samaradorligi yil sayin oshib bormoqda. Bu esa, avvalo, inson umrining uzayishiga olib kelmoqda. O'zbekistonda asr boshlarida o'rtacha umr ko'rish 30-45 yosh bo'lgan bo'lsa, hozir 72-75 yoshni tashkil qiladi. Sog'liqni saqlash sohasidagi bu yutuqlar, inson salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish davlatimiz faoliyatidagi ustuvor yo'naliш mahsulidir.

Sog'liqni saqlash tizimida tez tibbiy yordamni tashkil etish muhim o'rin tutadi. Tez tibbiy yordam zarur asbob-uskunalar bilan jihozlangan maxsus davolash muassasalari

tomonidan amalga oshiriladi. Respublikada tibbiyot muassasalari soni yil sayin ko‘payib bormoqda, shunga yarasha shifokorlar, feldsherlar, hamshiralalar, laborantlar ko‘proq tayyorlanmoqda. Bu aholiga malakali tibbiy yordam ko‘rsatishni yuqori darajada olib borishni va davolash natijalarini keskin yaxshilash imkonini beradi. Biroq tez tibbiy yordam xizmati yuksak darajada tashkil qilingan bo‘lsa-da, to‘satdan kasallanish va baxtsiz hodisalarda yaqin joydagi fuqarolar shifokorgacha birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsata olmasalar, kutilgan natijalarga erishib bo‘lmaydi. Aholini birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish qoidalariga o‘rgatishga intilishning sababi ham aynan ana shunda. Birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatishning umumiy qoidalari mакtabda o‘rgatiladi, u o‘t o‘chiruvchilar, militsiya xodimlari, transport haydovchilarni tayyorlash o‘quv dasturiga ham kiritilgan. Harbiy xizmatchilar ham tez tibbiy yordam ko‘rsatishni o‘rganadilar. Laborantlar, farmatsevtlar, tish texniklari tayyorlash dasturiga «Birinchi tibbiy yordam fani asoslari» talablarga binoan kiritilgan (1969-yil). Qonunning 33-moddasiga ko‘ra, har bir tibbiy xodim shikastlangan kishiga ko‘chada, yo‘lda, jamoat joylarida birinchi chaqiriq bo‘yicha yordamga kelishi va baxtsiz hodisalar, to‘satdan kasallanishlarda birinchi yordamni to‘g‘ri ko‘rsata bilishi lozim. Bu modda bandlarini bajarmaslik bizning qonunlarimiz bo‘yicha jinoyat bilan yonma-yon turadi. Qonunning 17-moddasiga binoan, kasb-koriga oid o‘z vazifalarini bajarmagan tibbiyot xodimlari qonun bo‘yicha jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortiladilar. Mahalliy hokimiyat organlari muassasalar va korxonalar rahbarlari zimmasiga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatayotgan tibbiyot xodimlariga har tomonlama ko‘maklashish, shikastlanganlarni va to‘satdan kasallanib qolganlarni yaqindagi davolash muassasasiga transportirovka qilish uchun zarur transport, aloqa vositalari bilan ta’minalash shartligini bilishlari lozim.

Tibbiyot xodimi bo‘lishni istagan har bir kishi bu kasbning qiyinligini va uni doimo qunt bilan o‘rganish katta mehnat talab etishini, bilimlarni to‘xtovsiz takomillashtirib va to‘ldirib borish zarurligini bilib olishi kerak. Tibbiyot xodimi bemorlarning hayoti va dardlarini o‘zining shaxsiy manfaatlaridan yuqori qo‘yishi lozim. Bizni o‘rab turgan artof-muhitning to‘satdan bo‘ladigan zararli omillari ta’sirida odam a’zolari faoliyatining zararlanishi yoki buzilishi baxtsiz hodisa, deb ataladi. Baxtsiz hodisalar yuz berganda, tez yordam qarorgohlariga favqulodda holatlar haqida zudlik bilan xabar qilish lozim. Bunday

hollarda birinchi tez tibbiy yordamni ko‘rsatish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bemorlarga bunday yordamni baxtsiz hodisa sodir bo‘lgan zahoti va shifokor yetib kelguncha yoki zararlangan kishini statsionarga olib borguncha ko‘rsatish lozim. Aksariyat baxtsiz hodisalarda zararlanib qolgan kishilar ularning qarindoshlari, qo‘shnilari yoki tasodifiy yo‘lovchilar birinchi bor uchragan tibbiy muassasa (dorixona, sanitariya-epidemiologiya nuqtalari, bolalar bog‘chasi va boshq.)ga murojaat qiladilar. Bu muassasalarning tibbiyot xodimlari zudlik bilan yordam ko‘rsatishlari shart. Baxtsiz hodisalar yordam ko‘rsatish juda qiyin bo‘lgan sharoitlarda, kerakli asbob-uskunalar, dori-darmonlar, yorug‘lik, suv, issiq xona, yordamchilar bo‘lmagan joylarda yuz berishi mumkin. Shunga qaramay, imkon boricha to‘liq birinchi tibbiy yordam ko‘rsatilishi zarur, chunki kasallikning bundan keyingi kechishi, zarar ko‘rgan kishining hayoti shunga bog‘liq. Laborantlar, farmatsevtlar, tish texniklari o‘qitish dasturiga «Birinchi tibbiy yordam» fanining kiritilishi ana shu bilan izohlanadi. Baxtsiz hodisalarda va to‘satdan ro‘y bergen kasallikkarda tezlik bilan malakali birinchi yordam ko‘rsatishni bilish uchun barcha tibbiyot xodimlari turli shikastlar, to‘satdan yuz beradigan kasallikkarning asosiy belgilarini puxta bilishlari, bu shikastlar va holatlar zarar ko‘rgan, kasallangan odam uchun qanchalik xatarli ekanligini aniq tasavvur qilishlari lozim.

### **Foydalaniqan adabiyotlar ro‘yxati**

1. R.U. Muhitdinov, N.S. Tojiboyev. Favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko‘rsatish. Namangan, 2002.
- 2.M.Y. Bektemirov. Jarrohlik va reanimatsiya asoslarida hamshira ishi. T., Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003.
- 3.F.Y. Nazarov, F.O. Odilov. Bemorlarni uyda va kasalxonada parvarish qilish. T., 2003.
- 4.M.X. Muhtorov. Reanimatsiya. T., «ILM ZIYO», 2003.
- 5.T.Y. Umarova, I.K. Qayumov. Hamshiralik ishi. T., «ILM ZIYO», 2005.

## GINEKOLOGIYA FANING RIVOJLANISH TARIXI

**Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi**

**Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi**

**Mayliyeva Mehribon Yusufboyevna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ginekologiya fanining tarixi, rivojlanishi, uning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan tibbiyat soxasidagi olimlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** qalqonsimon bez, akusher, homiladorlik, ginekologiya, rivojlanish.

Ginekologiya grekcha so 'zdan olingan bo'lib, ginekos — ayol va logos — fan, o'r ganish ma'nosini anglatadi. Ginekologiya ayollar haqidagi fan bo'lib, ayollar organizmiga bog'liq bo'lган o'ziga xos xususiyatlarni, tanosil a'zolarning kasalliklari va shu kasalliklar tufayli vujudga keladigan patologik jarayonlarni o'rganadi. Ayollar a'zolaridagi o'zgarishlar va ular funksiyasining buzilishi ba'zan boshdan o'tkazilgan turli infeksiya yoki surunkali kasalliklar, yurak, jigar, buyraklar yoki qalqonsimon bez kasalliklari hamda tug'uruqdagi jarohatlar oqibatida ro'y berishi mumkin. Akusherlik ginekologiyaning homiladorlik va tug'uruq bilan bog'liq bo'lган fiziologik va patologik jarayonlarini o'rganadigan bir bo'lagidir. Ginekologiya umumiy va maxsus bo'limlardan iborat.

Ginekologiyaning umumiy bo'limi ayol jinsiy a'zolari kasalliklarining belgilari, ularni aniqlash, umumiy tekshirish usullari, kasalliklarning oldini olish va ularni davolash yodlarini o'rgatsa , xususiy ginekologiya bo'limi kasalliklarning kechishi, belgilari, ularni aniqlash yo'llari, davolash hamda kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlarini o'rgatadi. Ginekologiya tibbiyotning boshqa ko'p sohalari —anatomiya, fiziologiya, mikrobiologiya va virusologiya, anesteziologiya va reanimatologiya, xirurgiya, terapiya, endokrinologiya kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq.

O'smirlar ginekologiyasi, endokrinologik kasalliklarni operativ va nooperativ yo'llar bilan davolash ham da onkologik kasalliklar bo'limi keyinchalik ginekologiyadan alohida fan sifatida ajralib chiqdi. Ayollar kasalliklari to'g'risidagi m a'lum otlarni „Avesto“ asarida, shuningdek, H indiston, M isr va Y unionistonda topilgan qo'lyozm alarda ham uchfatish mum kin. Tibbiyat ilmining bobokaloni buyuk m utafakkir Abu Ali ibn Sino o'zining 1012

-1023 - yillarda yozgan „Tib qonunlari“ asarida ayollar kasalliklarining ba'zi turlari haqida fikr yuritadi. XVI asrning mashhuolimi, Boburning xos tabibi Yusufiy o‘zining „Tibbi Yusufiy“ asarida ayollar kasalliklari, ularning kechishi va davosi haqida yozgan. Ginekologiya fani XIX asr oxirlaridagina mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Birinchi ayollar kasalliklarini davolovchi boMimlar Sankt-Peterburgda (1842) va Moskvada (1875) ochildi. Rossiyada 1858- yilda A.A.Kiterning „Ayollar kasalliklarini o‘rganish to‘g‘risida qo‘llanm asari nashr etildi. Ginekologiya fani rivojiga olimlaridan A.Y.Krassovskiy (1821 — 1898), V.F.Snegiryov (1847— 1916), K.F.Slavianskiylar (1847— 1898) katta hissa qo‘shdilar. Ginekologiya faniga asos solgan yana bir guruh olimlar D.O.Ott (1855-1929), V.S.Gruzdev (1866-1938), A.Z.M andelshtam (1894 -1984 ), K .K .Skrobanskiy (1874 - 1946 ), I.F.Jordania (1895—1962), V.I.Bodyajina (1904—1987) kabilardir. O‘zbekistonda 1920-yil SamDUNing „Meditina“ fakultetida „Akusherlik va ginekologiya“ kafedrasasi ish boshladi. 1927- yil Toshkentda „Onalik va bolalikni m uhofaza qilish“ ilm iy tekshirish instituti ochildi. O‘zbekistonning iqlim iy sharoitini nazarga olib, ayollarda eklam psiya kechishi o‘rganildi. Tugruqdan keyingi septik kasalliklarning kechishi, homiladorlik toksikozlari, tug‘uruqni og’riqsizlantirish, bepushtlik masalalari tekshirib, o‘rganildi. O‘zbekistonda ginekologiyaning rivojlanishida K.G.Xurshyov, A.A.Shoroxov, A .A .Kogan, G.L.Vaynshteyn, P.I.Brukson, A.D.Asfan-diyorova, M.A.Finkel, M.N.Volox-Isayeva va boshqalarning hissalari katta bo’ldi. Toshkent meditsina instituti „Akusherlik va ginekologiya“ kafedrasining mudiri bo‘lib ishlagan professor Abram Aronovich qilgan izlanishlari ayollar jinsiy a’zolari kasalliklarida nerv sistemasining ahamiyati, klimaks, rakning organizm bo‘ylab tarqalishi va menop auza kabi masalalarga qaratilgan. Olim va ajoyib pedagog A.A.Kogan respublikamizda mahalliy kadrlarni yetishtirish sohasida katta ishlarni amalga oshirdi.

Professor A.A.Qodirova va dotsent O.K.Mirsogatov bilan ham korlikda tibbiyot bilim yurtlarida t a ’lim olayotgan o‘quvchilar uchun „Akusherlik“ nomli katta darslik tayyorladilar. Samarqandda akademik I.Z.Zokirov rahbarligida tuxumdon va bachadon o‘smalari m uam mosi ustida ish olib borildi. Andijon tibbiyot institutida respublikam izning b a ’zi bir kurortlaridagi bolneologik va fizik omillarning ayollar jinsiy a’zolari kasalliklarining kechishiga ta’siri

o‘rganildi (prof. F.N.Gubaybullina.) Ginekologiya fanidagi yangiliklar va yechilmagan masalalar O’zbekiston akusher-ginekologlarining I—VI anjumanlarida keng muhokama qilindi (1971—2003). Yurtimizda mutaxassislar tayyorlash va ularning bilimlarini oshirish uchun 16 ta maxsus kafedra , O‘zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi qoshida „Akusherlik va ginekologiya“ ilmiy tekshirish instituti va uning 4 ta filiali ishlab turibdi. Ginekologiya-endokrinologiya sohasida O‘zbekiston „Akusherlik va ginekologiya“ ilmiy tekshirish instituti xodimlari (prof. D.D.Kurbanov , pro f. M.Sh.Sodiqova ) tinmay izlanishlar olib bormoqdalar. Ular buqoq bezi kasalliklarining jinsiy a’zolar faoliyatiga ta’siri yuzasid an ilmiyishlar qilmoqdalar. Shu kasallikka chalingan ayollarda homiladorlikdan saqlanishning ilmiy jihatdan asoslab berilgan turlari taklif qilingan. So‘nggi yillarda oilani sog’lashtirishga qaratilgan ishlar keng ko’lamda olib borilyapti. Kutilmagan homiladorlikning oldini olish maqsadida qo’llaniladigan kontrasteptiv vositalardan foydalanish natijasida onalar va bolalar o’limi ko’rsatkichlari ancha pasaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. M. F.Ziyayeva, G.X.Mavlyanova. Ginekologiya 2 - nashri Tibbiyot kollejlari uchun darslik TOSHKENT - 2008
2. Татарин Н.А.идр. Гинекология. Новейший справочник, М:,Санкт-Петербург, „Сова“, 2006.

## TURLI HOLATLAR UCHUN MAXSUS DIETALAR

**Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi  
Iskandarova Sapargul Muhammadovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turli holatlar uchun maxsus dietalar va ularning o'ziga hosligi haqida atroflicha ma'lumot berilgan. Bundan tashqari dietaning o'ziga hos ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** dieta, maxsus, salomatlik, immunitet, zarar.

Bugungi kunda dunyo aholisi ortiqcha vazin bilan bog'liq murakkab muammoga duch kelmoqda. Ushbu muammoning sababi faqat tibbiy muammo emas. Noto'g'ri ovqatlanish bilan bog'likdir. Ammo tibbiy jihatdan salomatligida muammosi bo'lgan insonlar uchun maxsus dietalarni tavsiya qilish lozim.

Bir necha xil maxsus parhezlar ishlab chiqilganki, ularni qo'llashdan maqsad zararlangan a'zo va tizimlarni to'liq ehtiyyotlash, faoliyatini yaxshilash, moddalar almashinuvini me'yorlashtirishga yordam berish, to'planib qolgan ortiqcha mahsulotlarni, natriy va suyuqliklarni organizmdan chiqarib yuborish hamda tanadagi yog' hajmini kamaytirishdan iborat.

**Maxsus parhez turlari**

Maxsus parhezlar oziqaviy muddalar ustunligi bo'yicha shartli ravishda bir necha turga bo'linadi:

oqsilli (tvorog, go'sht, baliq);

uglevodli ([shakar](#), meva, guruchli-mevali);

yog'li (qaymoq, smetana);

magniyli va kaliyli (magniy va kaliyga boy mahsulotlar);

ko'proq suyuqlik qabul qilish (sharbatlar, [choy](#)).

Oziq-ovqat mahsulotlarining ustunligi bo'yicha belgilangan maxsus parhezlar esa quyidagilarga bo'linadi:

vegeterian – o'simliklardan iborat taomlar;

sutli (sut, kefir, tvorog);

shakarli;

go'sht va baliq;

ichimliklar (sabzavot va mevalar sharbati, na'matak damlamasi, mineral suvlar).

Maxsus parhezlar quvvatliligi va kimyoviy tarkibi bo'yicha to'la qiymatga ega emas, shuning uchun ularda kasallikning kechishi va bemorning ko'tara olishi hisobga olinib, 1–2 kunga yoki haftada 1–3 marta (yengil ovqatlanish) belgilanadi. Ilgarilari maxsus parhezlar ketma-ket ratsionda o'rtacha 10–15 kunga belgilab qo'llangan. Hozirgi vaqtida ularning davomiyligi o'rtacha 2–3 kun bo'lib, yengil taomlardan iborat parhez tavsiya etiladi.

**Tanani yengillashtiruvchi parhezlar**

Tanani yengillashtiruvchi (uglevodli, oqsilli, yog'li) parhezlar turli variantlarga bo'linadi, ulardan onda-sonda foydalanish mumkin yoki turli parhezli dasturlar tarkibiga kiritiladi. Masalan, uglevodli parhezlar quyidagi tartibda bo'ladi:

**Shakarli parhez**

Shakarli parhez o'tkir nefrit, buyrak va jigar yetishmovchiliginin bartaraf etishda tavsiya etiladi. Bir kunda 5 mahal 1 stakan choy 30 g shakar bilan ichiladi.

**Kempner parhezi**

Guruch-kompotli (Kempner parhezi) [arterial gipertenziya](#), qon aylanishi yetishmovchiligi, buyrak yetishmovchiligi, jigar va o't qopni kasalligida buyuriladi. Bir kunda 6 mahal 1 stakan shirin kompot bilan, 2 marta suvda tuzsiz pishgan shirin guruchli bo'tqa yeyiladi. Bir kunda jami – 1,5 kg yangi yoki 240 g quruq mevalar, 50 g guruch, 120 g shakar, 1,5 l suyuqlik qabul qilinadi.

**Olmali parhez**

Olmali parhez [semirish](#), [arterial gipertenziya](#), qon aylanishi yetishmovchiligi, o'tkir nefrit va buyrak yetishmovchiligi, jigar va o't qopni kasalligida tavsiya etiladi. 300 g yaxshi pishgan olma yoki olmali taom ko'rinishida, har kuni 5–6 mahal. Hammasi bo'lib 1,5–2 kg olma iste'mol qilinadi.

**Quruq mevalar parhezi**

Quruq mevalar parhezi arterial gipertenziya, qon aylanishi yetishmovchiligi, [jigar](#) va o‘t qopi kasalligida tavsiya etiladi. 100 g ivitilgan qora olxo‘ri (yoki turshak, mayiz va boshqalar) har kuni 5 mahal, hammasi bo‘lib 0,5 kg.

#### Tarvuzli parhez

Tarvuz arterial gipertenziya, qon aylanishi yetishmovchiligi, [nefrit](#), [podagra](#), fosfaturiyasiz [buyrak-tosh kasalligi](#), jigar va o‘t yo‘li kasalligi, semirishga qarshi yeb turish kerak. Kuniga 5 mahal 300–400 g dan tarvuzning o‘rtasi, eng shirin joyi, hammasi bo‘lib 1,5–2 kg iste’mol qilinadi.

#### Kartoshkali parhez

Kartoshkali parhez nefritlar, [arterial gipertenziya](#), qon aylanishi yetishmovchilida tavsiya etiladi. 300 g po‘sti bilan qaynatilgan yoki tuzsiz pishirilgan kartoshka, hammasi bo‘lib 1,5 kg yeyish lozim.

#### Bodringli parhez

Bodring semirish, arterial gipertenziya, qandli diabetning II turi semirish bilan, nefritlar, jigar va o‘t yo‘li kasalligi, podagra, fosfaturiyasiz buyrak-tosh kasalligida tavsiya etiladi. 300 g yangi bodring tuzsiz, har kuni 5 marta, hammasi bo‘lib 1,5 kg bo‘lishi kerak.

#### Salatli parhez

Salatli parhez semirish, ateroskleroz, arterial gipertenziya, [metabolik sindrom](#), nefritlar, jigar va [o‘t yo‘li kasalligi](#), podagra, fosfaturiyasiz buyrak-tosh kasalligida buyuriladi. Yangi, xom sabzavot va mevalar, bir kunda 5 mahal 250–300 g dan, tuzsiz, o‘simglik yog‘i yoki smetana qo‘shilgan holda tavsiya etiladi.

#### Sulili parhez

Suli semirish, aterosklerozni bartaraf etishda yordam beradi. Bir kunda 5 mahal 140 g dan suvda pishgan sulili bo‘tqa, jami 700 g. Shuningdek 1–2 stakan choy yoki na’matak qaynatmasi ichiladi.

#### Oqsilli, yengil parhezlar quyidagi tartibda belgilanadi

#### Sutli parhez

Sutli (kefirli) parhez semirish, ateroskleroz, arterial gipertenziya, metabolik sindrom, qon aylanishi yetishmovchiligi, nefritlar, jigar va o‘t yo‘li kasalligi, podagra, fosfaturiyasiz

buyrak-tosh kasalligida tavsiya etiladi 200–250 g dan sut yoki kefir, prostokvasha (yog‘i kam bo‘lishi mumkin) kuniga 6 mahal, jami 1,2–1,5 l ichgan ma’qul.

Yengil parhezlarda suyuqlik iste’mol qilish quyidagi tartibda belgilanadi Sharbatli parhez semirish, ateroskleroz, arterial gipertenziya, [qandli diabetning II turi](#) semirish bilan, buyrak, jigar va o’t yo‘li kasalligi, podagra, fosfaturiyasiz buyrak-tosh kasalligida tavsiya etiladi. 600 ml sabzavot yoki meva sharbati, 200 ml suv yoki 0,8 l na’matak qaynatmasi bilan aralashtirilgan, 4 mahal qabul qilinadi.

Choy o‘tkir [gastrit](#), ichakning diareya bilan surunkali yoki o‘tkir kasallanishida buyuriladi. Bir kunda 7 mahal 1 stakan choyga 10 g shakar qo’shib ichiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. B.M.Saidov. Diyetologiya. Darslik, 1-jild. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008.
2. G.Shayxova. Ovqat gigiyenasi. O’quv uslubiy majmua. “Yangi asr avlod”i”. 2015

## **YUQUMLI KASALLIKLAR TARIXI VA RIVOJLANA BORISH XUSUSIYAT.**

**Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi  
Ko'chqarova Iqbol Baxtiyorovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yuqumli kasalliklarning o'r ganilish tarixi, ularning davr o'tishi bilan keng tarqalishi va turlarining ko'payib borishi bilan bog'liq tomonlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kasallik, yuqumli, tibbiyot, tabobat, rivojlanish.

Yuqumli kasalliklar qadim zamonlarda ham uchragan. Chinchechak, o'lat, vabo va boshqa xatarli, yuqumli kasalliklar vaqtiga-vaqtiga bilan keng tarqalib, millionlab kishilarning yostig'ini qurutgan, jamiyatga ko'p halokat yetkazgan. Yuqumli kasalliklarning mohiyati ularning kelib chiqish sabablari uzoq vaqt noma'lum bo'lib kelgan.

O'rta asrning mashxur olimi va shifokori Abu Ali Ibn Sino «Al qonun» asarida o'lat, chinchechak, qizamiq va boshqa yuqumli kasalliklarni ko'zga ko'r inmaydigan jonivorlar qo'zg'atsa kerak deb gumon qiladi. Yuqumli kasalliklar odamlar hayotida muhim rol o'ynaydi. Xozirgi kunga qadar yer yuzida ma'lum bo'lgan va o'rganib chiqilgan yuqumli kasalliklarning soni 1060 dan ortiq. Shularning ba'zilari hali ham vaqtiga-vaqtiga bilan epidemiya, hattoki pandemiya shaklida keng tarqalib turadi. Shuning uchun ham ularning kishilar sog'lig'iga va umuman kishilik jamiyatiga keltiradigan zarari juda kattadir. Yuqumli kasalliklar haqidagi ta'limot mikrobiologiya, epidemiologiya, parazitalogiya, immunalogiya, eksperimental ximioterapiya va patologik anatomiya bilan chambarchas bog'liq.

Yuqumli kasalliklarni garchi patogen bakteriyalar, viruslar va bir hujayrali sodda jonivorlar qo'zg'atsada, ularning paydo bo'lishini faqat mikrobnинг organizmga qarshi kurashi natijasi deb hisoblab bo'lmaydi. Infeksiya avj olishi murakkab ijtimoiy biologik jarayon bo'lib, mikrob bilan makroorganizmning o'zaro ta'siri natijasiga bog'liq.

Patogen bakteriya kirganda odam organizmida patologik o'zgarishlar, moslashish va himoyalanish jarayoni yuz beradi, ya'ni infekzion kasallik rivojlanadi. Patogen mikrob organizmga kirgandan so'ng kasallik rivojlanishi shart emas. Patogen mikrob bilan odam organizmi o'rtasidagi munosabat turlicha bo'lishi mumkin, bu bir tomonidan mikrobnинг

virulentligi va ikkinchi tomondan odam organizmining ana shu kasallikka moyilligi va reaktivligiga bog'liq.

Yuqumli kasalliklar boshqa kasalliklardan quyidagi 4-xususiyati bilan farq qiladi:

1. Yuqumli kasallikni tirik patogen mikrob qo'zg'atadi.
2. Bemor o'z navbatida kasallik manbai bo'ladi va uni boshqalarga yuqtirishi mumkin.
3. Bemor qaysi yuqumli kasallik bilan og'rib o'tsa, uning organizmida o'sha kasallikka qarshi immunitet hosil bo'ladi va shu kasallikning qaytadan yuqishiga qarshilik ko'rsatadi.
4. Yuqumli kasalliklar muayyan davrlar bilan, ya'ni siklik tarzda rivojlanadi va so'nadi.

Infeksiya so'zi tor ma'noda olinganda mikroorganizmni makroorganizmga kirishini anglatadi. Infektion jarayon esa patogen omil kirgan organizmda yuz beradigan fiziologik va patologik o'zgarishlar yig'indisidir. Infektion kasallik infektion jarayonning eng zo'riqqan darajasiga to'g'ri keladi va organizmda yuz beradigan har xil o'zgarishlar, hamda belgilar bilan namoyon bo'ladi. Demak, yuqumli kasallikning rivojlanishi uchun avvalo organizmga patogen mikrob kirishi kerak.

Patogen mikrob organizmga kirganda mikrob bilan organizmning o'zaro ta'siri har xil natija bilan yakunlanadi. 1. Kirgan mikrob organizmdan tashqariga chiqariladi yoki himoya mehanizmi ta'sirida yo'q qilinadi. 2. Patogen mikrob organizmda qulay sharoit topib o'rashib qoladi. Bunday hollarda ikki tirik organizm o'rtasida murakkab munosabatlар boshlanadi. Makroorganizm o'zining himoya mehanizmlari yordamida begona unsur, ya'ni mikrobnинг ko'payishiga va tarqalishiga to'siq bo'ladigan chora tadbirlarni ko'radi (masalan yallig'lanish jarayoni) Fagositlar elementlar, antitanalar safarbar qilinadi.

Organizmning bu himoya va moslashish reaksiyalari to patogen mikrob organizmdan butunlay yo'qolguncha davom etaveradi. Patogen mikrob o'zini har qanday qarshi kuchlardan saqlash-ga urinadi, ozgina sharoit bo'lsa tez ko'paya boshlaydi, fagositlarga qarshi moslanadi (kapsula hosil qiladi, agressin, atifagin, virulin kabi moddalar ishlab chiqariladi) Mikrobnинг organizmga kirishi, ko'payishi va makroorganizmning himoya mehanizmlarini yengib, o'zining zararli ta'sirini ko'rsata olishi, uning virulentligidir.

Patogen mikrob organizmda tez surat bilan ko'payadi va uning himoya kuchlarini yengib, o'zining patogen hususiyatini namoyon qiladi. Kasallik tayinli bir shaklda avj olib

klinik belgilari yaqqol ko'rindi. Yuqumli kasalliklar avj olishida quyi-dagi omillar: patogen mikrobning miqdori; patogen mikrob-ning virulentligi; odam organizmining reaktivlik xususiyati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Epidemiologiya yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi, avj olib borishi va tarqalishi qonuniyatlarini o'rganadigan va ularga qarshi kurash choralarini asoslab ishlab chiqadigan fandir. Epidemiologiya atamasi lotincha epi-ko'p, demas-aholi so'zlardan olingan bo'lib, aholi ichida kasallik tarqalishi degan ma'noni anglatadi. Infektion kasallikka yo'liqqa odamlarning, ko'p- ozligiga qarab epidemiologik jarayonning turli xillari ajratiladi.

1. Sporadic cases. Kasallikka uchragan odamlar onda-sonda uchraydi.
2. Epidemic - yuqumli kasallikning bironta o'lka, viloyatda yoki mamlakatda keng tarqalib ketishi.
- 3 Pandemic-one period halqaro miqyosda, ya'ni bir necha mamlakat va qit'alarda bironta infektion kasallikning keng tarqalib ketishi (masalan: cholera, grip)
4. Endemic-muayyan xududda bironta yuqumli kasallikning doimiy uchrab turishi.
5. Enzootic-bironta joyda yashovchi hayvonlar (masalan: kemiruvchilar) orasida biror yuqumli kasallikning doimiy uchrab turishi (masalan: o'lat, leyshmanioz)
6. Epizootic-hayvonlar orasida bironta yuqumli kasallikni keng tarqalib ketishi.
7. Exotic diseases-xorijdan keltirilgan yuqumli kasalliklar.

Yuqumli kasalliklar infeksiya manbaiga qarab avvalo ikki guruhgaga bo'linadi: 1. Antropozoonozlar-bu kasalliklar faqat odamlarda uchraydi va ular bilan hayvonlar kasallanmaydi (qo-rin tifi, ichburug', gepatitlar, OITS) 2. Zoonozlar-bu kasal-liklar hayvonlarda va odamlarda uchraydi. Odamlarga infeksiya hayvonlardan yuqadi (brusellyoz, o'lat, qutirish, kuydirgi). Yuqumli kasalliklarni oldini olish uchun avvalo shaxsiy gigiyenaga amal qilish lozim bo'ladi.

### Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati

1. E.I. Musaboyev, A.Q. Bayjanov. Yuqumli kasalliklar epidemiologiya va parazitologiya. Tibbiyot kollejlari uchun o'quv qo'llanma. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Ooshkent – 2006.
2. M.D. Axmedova, A.R. Obloqulov, S.N. Boboxomayev. Yuqumli Kasalliklarda Hamshiralikishi O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan



tibbiyot institutlarining 5720600-oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik stfatida tavsiya etilgan. Toshkent «Iqtisod-moliya» 2008.

3.Majidov V.M. Yuqumli kasalliliklar, Toshkent, Ibn Sino, 1993.

4.Shovahobov Sh.Sh. Yuqumli kasalliliklar va epidemiologiya asoslari, Toshkent, Ibn Sino, 1997.

5.Musaboyev E.I., Mamatqulov A.R. Emlashda inyeksiya xavfsizligi. Ooshkent, 2002.

COVID-19 infektsiyasida buyraklardagi o'zgarishlar  
Nazarov Abbas Uralovich assistent EMU UNIVERSITY

Raxmatova Yulduz Tolipovna shifokor Ginekolog.

E-mail: [bizning1007@gmail.com](mailto:bizning1007@gmail.com)

SARS-CoV-2 bilan bog'liq buyrak shikastlanishining patogenezi hali aniq aniqlanmagan. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yangi virus mutatsiyasidan kelib chiqqan buyrak shikastlanishi asosan buyrak kanalchalarida bo'lib, glomerulyar filtratsiyaning buzilishi va mochevina va kreatininning yuqori darajasi bilan izohlanadi. COVID-19 bilan og'rigan bemorlar bilan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'tkir buyrak shikastlanishi 29% ni tashkil qiladi. Ushbu dalillar oldida, so'nggi tadqiqotlarga asoslanib, biz buyrakning zararlanishini katta hissasini COVID-19 evolyutsiyasining ta'sir etuvchi omili sifatida ko'rishimiz mumkin, bu nafaqat og'irlikni murakkablashtiruvchi, balki jarayonning dastlabki kaskadining bir qismi sifatida. Buyrak shikastlanishining an'anaviy biomarkerlaridan foydalangan holda chuqurroq tahlil qilishni va o'limni kamaytirishga harakat qilish uchun xavf ostida bo'lgan bemorlarga yanada agressiv klinik aralashuvni talab qiladi. SARS-CoV-2 deb nomlangan yangi koronavirus shtammi sabab pandemiya deb e'lon qilingan edi. Bu kasallik klinikasida ijobjiy ma'noda nafas olish sindromining dastlabki ko'rinishi bilan tavsiflanadi, oddiy grippga o'xshash sindromdan og'ir nafas olish etishmovchiligidagi, muayyan guruhlarda o'lim darajasi yuqori bo'lishi kuzatiladi. Bu inson salomatligiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan millionlab odamga ta'sir ko'rsatadigan ob'ektni tashkil qiladi, shuning uchun uning tashxisi va terapiyasini tushunish uchun mehnat talab etiladi. Nafas olish, immun va gematopoetik buzilishlarga qaramay, boshqa organlar zararlanishi kuzatiladi, ular orasida buyrak va yurak-qon tomir tizimi nafaqat yallig'lanish bo'ronining bir qismi, balki virusning zararlash kurinishi xamdir. Ko'pgina hisobotlarda yurak etishmovchiligi va o'tkir buyrak shikastlanishi kasallikning yanada og'ir kechishi va intensiv davolanishni talab qiladigan bemorlarda keng tavsiflangan asoratlardir. SARS-CoV-2 bilan bog'liq buyrak shikastlanishining patogenezi omilli bo'lib, tizimli gipoksiya, qon ivish anomaliyalari, sepsis bilan bog'liq mexanizmlar, sitokinlarning ko'p chiqarilishi yoki hatto hujayralar nobud bo'lishi bilan bog'liq. Virus angiotenzin 2-konvertatsiya qiluvchi ferment retseptorlari (ACE 2) tomonidan tasir ko'rsatadi, bu uning skeletida mavjud bo'lgan S proteini (Spike protein) orqali bog'lanadi, bu uning hujayra ichiga kirishiga va uning sitopatik ta'siriga yordam beradi. Bundan tashqari, virus fermentga bloklovchi ta'sir ko'rsatadi, sitoprotektiv ta'sirga aralashadi. Ushbu retseptor o'pka, buyraklar, yurak va ichaklar hujayralarida ifodalanadi. Buyraklarda u asosan proksimal kanalchalar va podotsitlarda va o'pkadan 100 barobar ko'p miqdorda topiladi; ammo, glomerula yoki mezenximada tavsiflanadi. 2002 yilda sodir bo'lgan SARS-CoV dan farqli o'laroq, buyrak etishmovchiligi ko'p a'zolar etishmovchiligi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi taxmin qilinganida, SARS-CoV-2 da virusli kapsid yadroси oqsili buyrakda o'limdan keyin tekshirildi va SARS-CoV-2 antigenlari buyrak kanalchalarida to'planganligi aniqlandi, bu SARS-CoV-2 to'g'ridan-to'g'ri inson buyragini zararlaydi,

buyrakning o'tkir shikastlanishini (O'BY) keltirib chiqaradi va virusning tanada tarqalishiga yordam beradi. Yorug'lik mikroskopida diffuz proksimal naychalar zararlanishi, aniq chegarasining yo'qolishi, izometrik bo'limgan vakuolyar degeneratsiya va hatto ochoqli nekroz kuzatildi. Vaskulit, interstsial yallig'lanish yoki qon ketishining tavsifi yo'q. SARS-CoV-2 ning SARS-CoVga nisbatan kattaroq buyrak zararlanishi o'rtasidagi farqni SARS-CoV-2 ning ACE2 ga yaqinligi oshishi bilan izohlash mumkin, bu esa virusli rezervuar vazifasini bajaruvchi buyrakning ko'proq infektsiyalanishiga imkon beradi. Oldingi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, SARS-CoV-2 infektsiyasi limfopeniyani keltirib chiqarishi va bir vaqtning o'zida yallig'lanish sitokinlari (sitokin bo'roni) sonini oshirishi mumkin. O'BY SARS va MERS-CoV infektsiyalari bo'yicha oldingi tadqiqotlarda tasvirlangan bo'lib, ular 5-15% hollarda uchraydi va bu guruhda o'lim darajasi 60-90% ni tashkil qiladi. COVID-19da o'rtacha 3-9% O'BY bilan kasallanish qayd etilgan, ammo o'lim darajasi hali ham yuqori bo'lib, buyrak etishmovchiligi va kasallikning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shuningdek, erta tekshiruvni zarurati haqida ogohlantiradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, yangi virus mutatsiyasidan kelib chiqqan buyrak shikastlanishi asosan buyrak kanalchalari zararlanishi bilan xarakterli bo'lib, glomerulyar filtratsiyaning buzilishi va mochevina va kreatininning yuqori darajasi bilan izohlanadi. COVID-19 bilan kasallangan 110 bemorni o'rganish shuni ko'rsatdiki, bemorlarning 40 foizida proteinuriya va gematuriya, 26,9 foizida faqat gematuriya bor, 14,1 foizda esa ko'paygan. Azotli shlaklar va 3,2% buyrak kasalligining o'tkir buyrak shikastlanishi kuzatiladi. Kuzatishlardan shu aniq bo'ldiki buyrakning shikastlanishi o'lim uchun mustaqil xavf omili ekanligi va proteinuriya va gematuriya qanchalik ko'p bo'lsa, o'lim xavfi shunchalik yuqori degan xulosaga kelindi. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlarga asoslanib, taqdim etilgan dalillarga qaraganda, biz buyrakning katta hissasini COVID-19 evolyutsiyasining ta'sir etuvchi omili sifatida ko'rishimiz mumkin, bu nafaqat og'irlikni murakkablashtiruvchi, balki jarayonning dastlabki kaskadining bir qismi sifatida chuqurroq tekshirishni talab qiladi.

## ADABIYOTLAR

- 1-Naicker S, Yang CW, Xwang SJ, Liu BC, Chen JH, Jha V. Yangi koronavirus 2019 epidemiyasi va buyraklar. Buyrak Int. 2020;97:824-8.
- 2-Su H, Yang M, Wan C, Yi LX, Tang F, Zhu HY va boshqalar. Xitoyda COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning 26 postmortem topilmasining buyrak gistopatologik tahlili. Kid Int. 2020;98:219-27.
- 3-Chu KH, Tsang WK, Tang CS, Lam MF, Lai FM, To KF va boshqalar. Koronavirus bilan bog'liq og'ir o'tkir respirator sindromda o'tkir buyrak etishmovchiligi. Buyrak Int. 2005;67:698-705.
- 4-Diao B, Vang C, Vang R, Feng Z, Tan Y, Vang H va boshqalar. Inson buyragi yangi og'ir o'tkir respirator sindromli koronavirus 2 (SARS-CoV-2) infektsiyasi uchun maqsad



hisoblanadi. medRxiv 2020.03.04.20031120. doi:

<https://doi.org/10.1101/2020.03.04.20031120>

» <https://doi.org/10.1101/2020.03.04.20031120>

5-Pan XW, Xu D, Chjan H, Chjou V, Vang LH, Cui XG. COVID-19 epidemiyasi paytida o'tkir buyrak shikastlanishining potentsial mexanizmini aniqlash: bitta hujayrali transkriptom tahliliga asoslangan tadqiqot. Intensiv terapiya med. 2020;46:1114-6.

6-Huang C, Vang Y, Li X, Ren L, Zhao J, Xu Y va boshqalar. Xitoyning Uxan shahrida 2019 yilda yangi koronavirus bilan kasallangan bemorlarning klinik xususiyatlari. Lanset. 2020;395(10223):497-506.

<b>1</b>	FARMAKOLOGIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI VA AHAMIYATI  Boltaboyevna Farida Qurbonova	<b>4</b>
<b>2</b>	FAVQULOTDA HOLATLARDA SHIKASTLANISH VA UNING TURLARI, ULARNI OLDINI OLISH BO'YICHA TAVSIYALAR  Dusova Ranobibi Djumaniyazovna	<b>9</b>
<b>3</b>	GINEKOLOGIYA FANING RIVOJLANISH TARIXI  Mayliyeva Mehribon Yusufboyevna	<b>12</b>
<b>4</b>	TURLI HOLATLAR UCHUN MAXSUS DIETALAR  Iskandarova Sapargul Muhammadovna	<b>15</b>
<b>5</b>	YUQUMLI KASALLIKLAR TARIXI VA RIVOJLANA BORISH XUSUSIYAT  Ko'chqarova Iqbol Baxtiyorovna	<b>19</b>
<b>6</b>	COVID-19 infektsiyasida buyraklardagi o'zgarishlar  Raxmatova Yulduz Tolipovna	<b>23</b>